



ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA INTELLEKTUAL KAPITALNI RIVOJLANTIRISH

Raxmatov Jasurbek Abduraxmonovich

Annotatsiya:

maqolada iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish bosqichida an'anaviy ishlab chiqarish omillarining o'zgarayotganligi, inson kapitali, intellektual salohiyat asosiy omillarga aylanayotganligi, iqtisodiy o'sishning yuqori darajasiga intellektual salohiyatni rivojlantirish orqali erishib, pirovard natijada umumiy boyligini ko'paytirish, davlatning aksariyat ijtimoiy muammolarining hal etilishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: intellektual salohiyat, inson kapitali, iqtisodiy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyot, ilmiy-texnik taraqqiyot, xodimlarning innovatsion salohiyati.

Abstract

The article discusses the solution of economic development at the present stage, the traditional factors of production are changing, the main factors are human capital, intellectual competence, a high level of economic growth can be achieved through the development of intellectual competence, and as a result, the overall social wealth of society increases.

Keywords: intellectual competence, human capital, economic development, innovative economy, scientific and technological progress, innovative competence of employees.

Аннотация: в статье обсуждается решение экономического развития на современном этапе, меняются традиционные факторы производства, главными факторами становятся человеческий капитал, интеллектуальная компетентность, высокий уровень экономического роста может быть достигнут за счет развития интеллектуальной компетентности, а в результате увеличивается общее социальное богатство общества.

Ключевые слова: интеллектуальная компетентность, человеческий капитал, экономическое развитие, инновационная экономика, научно-технический прогресс, инновационная компетентность работников.





Ma'lumki, XXI asr intellektual qobiliyat, noodatiy fikrlash ko'nikmasi, psixologik jihatdan o'ta mustahkamlikni talab etadigan asr. Bu asrda faqatgina yuqoridagi xislatlarni o'zida mujassamlashtirgan sub'ektlargina rivojlanishi va mamlaktining rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha olishi mumkin. shuni ham ta'kidlash joizki, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetdan qolib ketishi muqarrar.

Dunyo mamlakatlarida sanoat rivojlanishi bosqichidan avval iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tabiiy va mehnat resurslariga, sanoat rivojlanishi bosqichida esa moddiy resurslarga ustuvorlik berilgan bo'lsa, sanoat rivojlanishidan keyingi hozirgi davrda intellektual va axborot resurslarining roli birinchi o'ringa chiqmoqda. Jahonning etakchi mamlakatlari taraqqiyoti yangi – bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, yangi texnologiyalariqisodiyotini shakllantirishga olib keldi. Intellektual boylik-bilimlar, g'oyalar va ijodiy mehnat orqali o'lchanadigan sanoat rivojlanishidan keyingi davrning asosiy mahsulidir. Intellektual boylik moddiy boylikdan ustun tomonlariga ega. Masalan, mulk egasi o'z boyligini o'zi qo'riqlaydi, bilim esa o'z egasini qo'riqlaydi. Yoki mulk xarajat vaqtida kamaysa, bilim bilan bo'lishgan sari mulk ko'payish xususiyatiga egadir. Jahonda har bir mamlakatning iqtisodiy ahvoli uning intellektual salohiyati bilan aniqlanadi. Rivojlangan mamlakatlarning aksariyati ta'lim tizimini samarali rivojlantirish orqali YAIMning 40%gacha ko'tarilishiga erishadilar. Ta'limga qilingan investitsiya nisbatan tezroq qoplanadi. Amerikalik ekspertlarning fikriga ko'ra, ta'lim tizimiga qilingan 1 dollarlik xarajat, 3-6 dollar daromad qilishga imkon beradi.

O'zbekistonning raqobat ustunligi birgina uning tabiiy boyliklari, mustaqillik yillarida yaratilgan zamonaviy ko'p tarmoqli sanoatidagina emas, balki ilmiy bazasi, yuqori malakali kadrlarida hamdir. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda intellektual salohiyatdan samarali foydalanish strategiyasini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham: «...biz yagona bir maqsadni ko'zda tutmoqdamiz. Ya'ni O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak





texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart» deb ta'kidlangan.

Yangi ming yillik boshida jahon iqtisodiyoti quyidagi ko'rsatkichlar bilan xarakterlangan: insonlarning atigi 3–5%i kelajak iqtisodiyotini, ya'ni intellektual salohiyatga asoslangan iqtisodiyot shakllangan mamlakatlarda, yer aholisining 15 % ga yaqini esa axborot tipidagi iqtisodiyotga ega postindustrial jamiyatda yashaydi. Odamlarning yana 30 % yaqini industrial iqtisodiyotli mamlakatlarda istiqomat qilishsa, qolgan 50 % aholi esa o'z hayotini hunarmandchilik va oddiy qishloq xo'jaligi yordamida yuritishga majburdir.

Demak, intellektual salohiyatga katta ahamiyat berish natijasidagini mamlakat iqtisodiyotini yuksak rivojlanish pog'onalariga ko'tarish mumkin. Bunda fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan korxonalarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida global tarmoq turli sohalarga kirib bormoqda, yuqori samaradorlikka ega texnologiya va aqlli ishlab chiqarish (xizmatlar) sohalari kengaymoqda. Jahon bilimlar iqtisodiyotini hayotning ajralmas qismi ekanligini tan olmoqda. Xitoy, AQSH, Yaponiya, Germaniya va Janubiy Koreyalarda raqamli aloqa, kompyuter texnologiyalari, elektr jihozlari, transport, meditsina, mexanik jihozlari va audio-vizual texnologiyalarni yaratishga bo'lgan patentlar soni ularni bilimlar iqtisodiyotida to'g'ri yo'nalish ololganini ko'rsatmoqda. Xitoyda birinchi o'rinda raqamli aloqa bo'yicha 16%, ikkinchi o'rinda kompyuter texnologiyalari bo'yicha 14% va uchinchi o'rinda audio-vizual texnologiyalarga 6,1% patentga arizalar soni to'g'ri kelmoqda. AQSHda birinchi o'rinda kompyuter texnologiyalari 12%, ikkinchi o'rinda meditsina texnologiyalari 10,9%, uchinchi o'rinda raqamli aloqa 7% patentga arizalar soni to'g'ri kelmoqda. Yaponiyada birinchi o'rinda elektr jihozlari, qo'rilmalari 11,2%, ikkinchi o'rinda kompyuter texnologiyalari 5,7% va uchinchi o'rinda transportga 5,6% patentga arizalar soni to'g'ri kelmoqda. Germaniyada birinchi o'rinda transport 10,7%, ikkinchi o'rinda elektr jihozlari, qurilmalar 10,5% va uchinchi o'rinda mexanizm- lar 6,4% patentga arizalar soni to'g'ri kelmoqda. Janubiy Koreya birinchi o'rinda raqamli aloqa 9,9%, ikkinchi o'rinda elektr jihozlar 9,6% va uchinchi o'rinda kompyuter texnologiyalari 7,6% patentga arizalar soni to'g'ri kelmoqda. Xitoydagi raqamli aloqa bo'yicha Huawai Techlogies Co tashkiloti 2019 yilda ilmiy ishlanmalari uchun 4411 ta xalqaro patent olishga ariza topshirgan.

Jahon bozoriga kirib borayotgan O'zbekistonda bilimlar iqtisodiyotini joriy etilishi milliy raqobatbardoshlik darajasini, ya'ni, mamlakatimiz har bir a'zosi farovonligini ta'minlash imkoniyatini beradi. Intellektual mulk mamlakatda ijtimoiy mehnat





unumdorligi darajasini belgilovchi va ilmiy ishlanmalarni olg'a suradigan vositalar va omillar majmui. Bizning fikrimizcha, intellektual kapitalni o'rganishning dolzarbligi ikki jihatdan belgilanadi: bu global va mahalliy. Ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik takomillashtirish, doimiy yangilash, obodonlashtirish va odamlarning turmush sifatini yaxshilash, yuqori samaradorlik va xavfsizlikni ta'minlashga bo'lgan muqarrar istagi bugungi kunda resurslarning etishmasligi bilan tobora ortib borayotgan muammolarga olib keladi. Masalan, neft va gazning tanqisligi, shuningdek, ularni qayta ishlash kuchlari mahsulotlarining alternativ energiya manbalarini izlashga salbiy ta'siri. Umuman olganda, inson hayotini ancha soddalashtiradigan texnologiyalar paydo bo'lmoqda. Shu munosabat bilan, hozirgi vaqtda iqtisodiy o'sish innovatsion rivojlanish va intellektual boylik bilan uzviy bog'liqdir.

Bizning fikrimizcha innovatsion tadbirkorlik – bu kreativ, iqtisodiyotdagi hali ma'lum bo'lmagan yoki keng tarqalmagan omillardan foydalanish (foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari, EHMLar uchun dasturlar, seleksiya yutuqlari) yoki ularni an'anaviy omillar bilan yangicha tarzda uyg'unlashtirish orqali yangicha yondashuv asosidagi tadbirkorlik faoliyatidir. Innovatsion tadbirkorlikning ustun jihati – bu uning an'anaviy tadbirkorlikka nisbatan ko'proq natija olib kelishi hisoblanadi. Biroq, ayni paytda ta'kidlash lozimki, innovatsion tadbirkorlik tadbirkorlarning oldiga o'ziga xos talablar qo'yadi, ularning doimiy ravishda ijod qilishi va izlanishi, yangi bilimlarni o'zlashtirishi va amaliyotga joriy etishi, yangi texnologiyalarni qidirishi va ulardan samarali foydalanishini taqozo etadi.

Shunga ko'ra, faol tadbirkorlikning asosiy sharti innovatsion faoliyat turi bilan shug'ullanish hisoblanadi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatida zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshqaruv usullaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

Innovatsion tadbirkorlikning asosiy belgisi, bu uning moliyaviy samaradorligiga yo'naltirilganligidir, chunki u orqali yangi mahsulot ishlab chiqarish va sotish imkoniyatini beradi. Innovatsion tadbirkorlik ishlab chiqarishda intellektual kapitaldan foydalangan holda yangi mahsulot yaratish orqali raqobatdosh tovarlar va xizmatlarga o'sib borayotgan talabni qondiradi.

O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 231989 ni tashkil qildi, lekin ulardan texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalar joriy qilgan tashkilotlar soni 1024 tani tashkil qildi

Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish amaliyotini hozirgi holatining tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanish yo'lga o'tish uchun O'zbekistonda muhim institusional asoslar va tashkiliy sharoitlar yaratilgan. Innovatsiyalarni yaratish va joriy etish jarayonlarini investitsiyalashda tadbirkorlik sub'ektlari faolligini oshirish





maqsadida innovasion faoliyatni rag'batlantirish va faollashtirish dastaklarini kengroq qo'llash hamda ushbu sohadagi me'yoriy-huquqiy asoslar, imtiyozlar tizimini yaratish lozim.

Bilimlar iqtisodiyoti iqtisodiyot rivojlanishining yangi sifat bosqichini, yuqori innovatsion faollikni, innovatsion g'oya va takliflarni korxonalar faoliyatini takomillashtirishga joriy etishni talab etadi. Buning uchun barcha korxonalarda intellektual mulk ob'ektlarini yaratgan va ishlab chiqarishga joriy etgan mutaxassislarni olingan iqtisodiy samaraga asosan tabaqalangan ravishda rag'batlantirish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po'latov M.E. Intelektual kapital hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisod fani bo'yicha fan doktori olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2017.
2. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T.: O'zbekiston, 2019.
3. Spumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiya. – M.: , 2017

